

## IMOM TERMIZIYNING SUNANLARIDAGI BOSHQA SAHIN KITOBLARIDA TOPILMAYDIGAN USLUBLARI

*Abdullahayev Olimjon*

*O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi islomshunoslik  
yo'naliishi 2-kurs magistranti*

**Anatatsiya:** Ushbu maqola, hadis ilmida Imom Termiziyning “Sunan” asarlarini boshqa hadis kitoblaridan farqli jihatlari va uslublarini, bir qancha muhaddislarni uslubini bir joyda jamlaganligi bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** zaif, sahih, g'arib, hasan, muhaddis, faqih

U zotning to'liq ismi Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn az-Zahhoq Abu Iso as-Sullamiy az-Zariyr al-Bug‘iy at-Termiziy bo‘lib, hijriy 209 (melodiy 824) yili Termiz yaqinidagi Bug‘ (hozirgi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani hududida joylashgan) qishlog‘ida o‘rta hol bir oilada tavallud topgan. Markaziy Osiyolik mashhur tarixchi Abu Saad Abdulkarim as-Sam'oni (1113-1167) at-Termiziy Bug‘ qishlog‘ida vafot etganligi uchun al-Bug‘iy taxallusi bilan ham atalganini, olimning ko‘p yig‘laganidan umrining oxirlarida ko‘zi ojiz bo‘lib qolganligidan az-Zariyr (ko‘zi ojiz) taxallusini olganligini ham qayd qiladi.

Imom Termiziy o’zlarini jome asarlarida boshqa muhaddislar qo’llamagan alohida uslublarni qo’llagan.

Imom Termiziy qo’llagan uslublar quyidagilardan iborat:

Imom Termiziy avvalo bir mavzuga bob qo'yadi, so’ng ushbu bobda bir yo undan ko’proq hadisni keltiradi, ushbu hadis borasida gaplar bo’lsa uni ham keltiradi.

Imom Termiziy hadisni keltirganidan so’ng, bu bobda falon falon sahobalardan hadis rivoyat qilingan deb keltiradi, bu bilan hadis rivoyatlarini zaxirasiga ishora qiladi. Gohida falonchi otasidan rivoyat qildi deya, roviy sahabani o’g’lini ismini keltiradi. Agar bob ostida bir sahabadan rivoyat keltirsa, o’sha sahabani bu bobda kelgan rivoyatlarni orasida uni sanamaydi. Lekin bu odatiga bir necha bobda xilof qilgan, iymon ziyoda va nuqson bo’lishi bobida, bobdagi rivoyatlarni keltirish asnosida bob ostidagi hadisni roviysini sanab o’tganlar.

Imom Termiziy bu bobda falon sahabadan hadis rivoyat qilingan deya, o’sha sahabani hadisini ortidan keltirib o’tgan.

Imom Termiziy kuniya egalarini ismlarini yo ismi aytilgan roviylarni kuniyalarini aytib o’tganlar. O’xshash ismlar va kuniyalarni orasini roviylar chalkashib ketmasligi uchun ajratib bergen.

Imom Termiziy hadis rivoyatidan so'ng, bu hadisda qissa bor deb o'tadi, bu asli bu hadis uzun lekin bu yerda qisqa keltirganiga ishora bo'ladi.

Imom Termiziy hadisni keltirib, uni navini bayon qilgach, ahli ilmlar yo aksar ulamolar nazdida yo ba'zi ahli ilmlar ushbu hadisga amal qiladi deb aytadi, bu so'zi bilan ushbu hadisga sahabalar va ulardan kegingi ulamo va faqihlar amal qilganini ifodalab o'tadi. Agar hadis fiqhida ixtilof bo'lsa muhaddis va faqihlar mazhabini ham bayon qilib o'tgan.

Imom Termiziy hadis rivoyat qilib, so'ng unga sahif yo hasan yo g'arib deya hukm chiqargan, gohida ikkitasini orasini jamlagan, "bu hasan va sahif hadis", gohida uchtasini jamlagan, "bu hasan, sahif va g'arib hadis". Bu yerda hasan bilan sahifni jamlaganda va g'arib bilan hasanni jamlaganda. Ulamolar bu mushkillikka bir necha javoblar bergan, quyida javoblarni keltiramiz:

Hadis hasan lizotihu va sahif lig'oyrihi bolishi mumkin, shu sabab Termiziy hasan va sahif hukmlarni bir hadisga bergen.

Hadis bir qovm nazdida hasan, boshqa qavmda esa sahif bo'lisi mumkin.

Hadis bir sanad bian hasan boshqa sanad bilan esa sahif bolishi mumkin. Hadis isnodi etiboridan hasan hukm jihatidan sahif bo'ladi.

Imom Termiziy sahif va hasandan lug'aviy ma'nosini kozlagan bo'lisi mumkin istelohiy ma'nosini emas.

G'arib va hasanni jamlaganda ham yuqoridagidek javob berib o'tgan ulamolar. Lekin bu o'rinda boshqa bir mushkullik kelib chiqadi, Imom Termiziy hadis hasan bo'lisi uchun uning yo'llari bittadan ko'p bo'lishini etibor qilgan, endi hasan hadis Imom Termiziy nazdida qanday g'arib bo'lisi mumkin, g'arib hadisni yo'li bitta bo'ladiku?. Ulamolar bu mushkullikka quyidagicha javob berib o'tganlar: Imom Termiziy hadisni hasan bo'lishida yo'lini birdan ko'p bo'lishini etiborga plganligi umumiy emas ayrim hasanlarga tegishli hasan lig'oyrihiga o'xshagan hadislarga. Hasan va g'aribni o'rtasini jamlaganda esa boshqa hasan turini iroda qilgan.

Imom Termiziyning sunani termiziy kitobidagi biz keltirib o'tgan uslublar ayrimlari xolos, Imom Termiziy boshqa muhaddislar qo'l urmagan uslublarni keltirib o'tgan. Hadislarga hukm chiqarishda ikki va uch hukmni jamlashlik ham u zotga xos bo'lган uslublardandir.

Sunan termiziy eng foydali hadis kitoblaridan. Imom Termiziy ushbu kitobda hadis matni va fiqhini jamlagan. Bir yoki bir necha hadis keltirib ortidan faqihlarni fikrlarini, ularni qaysi hukmga amal qilganligini keltiradi. Hadis darajasini sahif yo zaifligini, sanaddagi illatlarni va hadis yo'llarini zikr qiladi.

Imom Termiziy ushbu kitobida Imom Buxoriyni maqsadi "masaladagi fiqhni bayon" ni va Imom Muslimni maqsadi "bobdagi hadislarni jamlash va bir joyda

barcha yo'llarni zikr qilish” ni jamlagan. Bunga mutadovil va g’oyri mutadovil mazhablarni zikrini va boshqa kitoblardan ajralib turadigan foydalarni ham qo’shgan<sup>1</sup>.

Maqdisiy Imom Abu Ismoil Abdulloh ibn Muhammad Ansoriydan rivoyat qilb aytadi: Imom Termiziyning kitobi Imom Buxoriy va Muslimni kitobidan foydaliroq, sababi Buxoriy va Muslimni kotobidagi doydalarga faqat chuqur ilmga ega bo’lgan inson yetadi, Termiziyni kitobidan esa barcha insonlar foyda oladi.

Ibn Asir jome’u-l-usul kitobida keltiradi: Imom Termiziyning Sahih kitoblari tartibi chiroqli, foydasi ko’p, takrori oz kitoblardan. Bu kitobda boshqa kitoblarda uchramaydigan mazhablarni bayoni, dalil olish yo’llari, hadis navlarini “sahih, hasan, zaif” bayoni, jarh va ta’dil va oxirida ilal kitobi bor<sup>2</sup>.

Imom Zahabiy “Tazkirotu-l-huffoz” asarida Abu aliy Mansur ibn Abdulloh Xolidiydan naql qiladi: Imom Termiziy aytadi: Sunan termiziyni yozib bo’lgach Hijoz, Iraq, Xuroson ulamolariga ko’rsatdim. Ular bu kitobni qabul qidilar. Kimni uyida Sunan termiziy bo’lsa, uyida Payg’ambar so’zlagandek bo’ladi.

Imom Suyutiy Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar ibn Roshiddan hikoya qiladi: Termiziyni kitobi hadislarni boblar bilan tartiblanganini qamrab oladi. Bu ham bir ilm. Undagi fiqh ham boshqa ilm, hadis illatlari, hadisni sahihini saqimidan ajratish ham alohida ilm, ism va kuniyalarni bayon qilish ham ilm, jarh va ta’dil ham alohida ilm, Payg’ambarni ko’rgan va ko’rmaganni bayoni ham alohida im hisoblanadi. Hadis rivoyat qilgan roviylarni adadini bayoni ham boshqa ilm hisoblanadi. Bu aytib o’tilgan ilmlardan boshqa ham ko’plab ilmlar mavjud<sup>3</sup>.

Hofiz Ibn Rushd zikr qilmagan boshqa ilmlarni ham bayon qildi: Shoz o’rirlarni bayon qilish ham ilm, mavqufni bayoni ham alohida ilm, mudraj ham istelohda alohida ilmdir. Undagi roviylarni vafotlari, tabaqalarga ishora qilish ham alohida ilmdir.

### Termiziydagi barcha hadislar amal qilinadi

Imom Termiziy ilal kitobida aytadi: Sunan kitobimdagi barcha hadislarga amal qilinadi. Ahli ilmlar unga amal qilganlar, lekin undagi ikki hadisga amal qilmaganlar.

1.Ibn Abbosni “Payg’ambar Madinada peshin va asrni, shom va xufttonni xatar, yomg’ir, safarsiz hamladi” hadisiga amal qilinmaydi. Chunki namozni jamlash joiz degan mujtahidlar ham faqat uzur bo’lsagina joiz deganlar.

2.Muoviyani “Rosululloh marhamat qildilar: Xamr ichgan insonni

darralanglar to’rtinchisida qatl qilinglar” hadisi. Ulamolar bu ikki hadisga ummat amal qilmagan deb aytadilar. Lekin Mulla Muin “Dirosotu-l-labib” kitobida bu ikki hadisga ham amal qilinganini aytib o’tgan. Hanafiyalar Ibn Abbosni hadisini namozni jam’i suvariya ya’ni “bir namozni oxirgi vaqtida va ikkinchi namozni esa boshida

<sup>1</sup> Xoysi Obodiy. Al-misk ash-shaziy.1-jild – Devbant, 2012. – B.40.

<sup>2</sup> Xoysi Obodiy. Al-misk ash-shaziy.1-jild – Devbant, 2012. – B.42.

<sup>3</sup> Xoysi Obodiy. Al-misk ash-shaziy.1-jild – Devbant, 2012. – B.42.

o'qidi" deb ta'vil qiladi va bu hadisga amal beradi. Muoviyani hadisiga esa siyosatan amal beradi. Siyosatan hokimlar ta'zir o'larоq qatl qilish mumkin, hanafiyalar ham shuni olib, barcha hadislarga amal beradi.

Ibn Javziy "Mavzuot" kitobida Imom Termiziyy rivoyat qilgan hadislardan yigirma beshtasini mavzu hadis deb keltiradi. To'g'risi u hadislar mavzu emas. Suyutiyy "Al-qovlu-l-hasan fi-z-zabbi ani-s-sunan" asarida Termizizyni sunanlarida mavzu hadis yo'qligini keltirganlar.

Ibn Javziyni odati ko'pincha sahih hadislarga mavzu deb hukm berardi hatto u sahih muslimda kelsa ham. Hokim hadisni sahihga chiqarishda mutasohil bo'lganidek Ibn Javziy ham hadisni mavzu deyishga mutasohil edi.

### Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

- 1."Quroni karim"
- 2.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Tafsiri hilol".
- 3."Sahihul-Buxoriy". 1410 h. (1990 m.) ikkinchi bosmasi, Shayh Muxammad Muhibbin Abdulhamid. Misr.
4. "Sihhatu-sitta". Shayx Shamsuddinxon ibni Ziyovuddinxon. Sharxlar hqidagi bobdan.
5. "Tarifat sayyid Sharif" 1318 h.
6. "Asomiy mashoyihul Buxoriy". Muxammad ibn Is'hoq .1411h. (1991 m). Maktabatul kavsar. Saudiya.
7. "Mustalhul hadis". Muxammad solih usayman.
- 8."Munjidul-A'lam" . 1986 yil.
- 9."Umdatul Qori fiy sharhul-Buxoriy".
10. Karachida nashr qilingan "Sahihul-Buxoriy" ning muqaddimasidan.
11. "Hadis va xayot" 1-juz. Shayx Muxammsodiq Muxammadyusuf. 2003 yil.
12. "Sharq mash'ali" 1998 yil. 3-4 sonlari.
13. " Imom Buxoriy ta'rifi" Said Azim Muxammad Ali. Cho'lpon nashriyoti. Toshkent. 1996 yil.
14. "Imom Buxoriy muxaddislar sultonи" Toshkent 3004 yil.
15. "Imom al-Buxoriy saboqlari" 2002 yil 4-son.
16. "Imom al-Buxoriy saboqlari" 2003 yil 1-son.
17. "Imom al-Buxoriy saboqlari" 2001 yil 3-son.
18. "Al-jomi' as-sahih". Abdulg'ani Abdulloh tarjimasi. 1992 yil . Toshkent.